Funksional nazariya. Amerikalik huquqshunos Mixaylis Diamantis ushbu yondashuv orqali yuridik shaxslarning javobgarligini ularning muayyan vazifalarni bajarishdagi funksiyalari, ichki tizimlari va qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qiladi (Diamantis, 2019).

Funksional yondashuvga ko'ra, yuridik shaxs jinoyat huquqining subyekti sifatida ichki faoliyatdagi tashkiliy kamchiliklar, boshqaruv tizimining nosog'lomligi yoki nazorat mexanizmlarining yetishmasligi natijasida jinoiy xatti-harakatlarni sodir etadi.

Yuridik shaxslar real shaxs emas, balki ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi institutlar hisoblanadi. Shu sababli jinoiy javobgarlik ham alohida shaxslarni jazolash emas, balki tashkilot faoliyatini qayta ko'rib chiqish va uni isloh qilishga majburlash maqsadini ko'zlaydi.

Diamantis jinoyatni tashkilotning "bilish qobiliyati" (corporate knowledge) bilan bog'laydi. Uning fikricha, yuridik shaxsning javobgarligi jamoaviy bilim va ichki axborot oqimlari qanday tashkil etilganiga bog'liq. Agar tashkilot boshqaruvi xodimlar yoki bo'limlar o'rtasidagi aloqalarni samarali tashkil qilmagan bo'lsa, bunday tizim "bilim yetkazishdagi muvaffaqiyatsizlik" orqali jinoyatga olib kelishi mumkin. Shu bois jinoyat shaxsiy ayb emas, balki funksional tizimdagi institutsional nosozlik sifatida baholanishi lozim. Uning fikricha, tashkilot jamoaviy subyekt bo'lib, undagi bilim va qarorlar funksional jihatdan taqsimlangan holda shakllanadi.

Ushbu yondashuvning afzalliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, jamoaviy aybni tashkilot ichidagi funksiyalar bilan bog'lash imkonini beradi; ikkinchidan, jinoyatni individual shaxslarga to'liq yuklash o'rniga, tashkilotning ichki tizimini tahlil qilishni talab etadi;

uchinchidan, korporativ jinoyatchilikni mustaqil institut sifatida anglash imkonini yaratadi; to'rtinchidan, qonunchilikni ehtiyot choralari, idoralararo aloqalar va jamoaviy mas'uliyat orqali takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kamchiliklari sifatida esa korporativ bilimni huquqiy jihatdan aniqlash va o'lchash murakkab jarayon ekanligi qayd etiladi; aybni aniqlash jarayonida funksional tuzilmalar o'rtasidagi chegaralar aniq bo'lmasligi mumkin; amaliyotda bu yondashuv yirik tashkilotlar uchun samaraliroq bo'lsa-da, kichik biznes subyektlarida qo'llashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Diamantisning funksional yondashuvi AQShdagi korporativ huquq islohotlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yevropa Ittifoqi, Avstraliya va Kanada huquq tizimlarida ham korporativ javobgarlikni tashkilot funksiyalari asosida baholash amaliyoti shakllanmoqda.

Ushbu nazariya jinoyatni shaxsiy xatti-harakat sifatida emas, balki institutsional xulq sifatida talqin etuvchi yondashuv sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston huquq tizimida ham ushbu nazariya tashkilotlar faoliyatini jinoyatlardan himoya qilish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda korporativ madaniyatni rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Institutsional yondashuv zamonaviy korporativ tashkilotlarning ichki tuzilishi, madaniyati va normalariga asoslangan holda jinoyatni tushuntiruvchi samarali nazariy ramka sifatida ajralib turadi. Niderlandiyalik kriminolog va huquqshunos Judith van Erp (2018) ushbu yondashuvning yetakchi vakillaridan biri hisoblanadi. Uning tahlillariga ko'ra, korporativ jinoyat individual shaxslar darajasida emas, balki institutlar (tashkilotlar) darajasida shakllanadigan tizimli muammodir.

Institutsional yondashuvga ko'ra, tashkilotlar faqat yuridik shaxs sifatida emas, balki ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Ularda muayyan madaniyat, me'yorlar va institutsional odatlar shakllangan bo'lib, ular tashkilotning barcha qaror va xatti-harakatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu yondashuvga ko'ra, jinoyat shaxsning individual xohishi natijasi emas, balki tashkilotda hukmron bo'lgan amaliyotlar va korporativ qoidalar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. Korporativ jinoyat strukturaviy, tizimli va madaniy xususiyatga ega hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu sababli javobgarlikni alohida shaxsga emas, balki institutning o'ziga qaratish zarur deb hisoblanadi.

Bunda tashkilot ichidagi korporativ madaniyat, mehnat munosabatlari, hokimiyat vertikasi va axloqiy me'yorlar jinoyatchilikka moyillikni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida baholanadi. Institutsional yondashuvga ko'ra, aniq maqsadlarga juda yuqori bosim qo'yilgan tashkilotlarda xodimlar ko'p hollarda qonunga xilof harakatlarni "normal" holat sifatida qabul qilishi mumkin. Agar tashkilot ichida nazorat mexanizmlari sust bo'lsa, rag'batlantirish tizimi axloqiy mezonlarga emas, balki faqat natijaga bog'langan bo'lsa, jinoyat sodir etish holatlari ortadi. Bunday muhitda xatti-harakatlar shaxsiy emas, balki institutsional xulq-atvor sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yondashuvda javobgarlik faqat jazolashni emas, balki tashkilot ichidagi o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi choralarni ham nazarda tutadi. Jumladan, ichki nazorat tizimini qayta ko'rib chiqish, korporativ madaniyatni yangidan shakllantirish hamda axloqiy ta'lim mexanizmlarini joriy etish kabi choralar muhim ahamiyatga ega.

2000-yillar boshidan boshlab Yevropa Ittifoqi davlatlarida, xususan Niderlandiya, Fransiya va Germaniyada korporativ madaniyat asosida javobgarlik belgilash amaliyoti keng tarqalgan. Yirik banklar, transmilliy kompaniyalar va farmatsevtika konsernlariga nisbatan qo'zg'atilgan

jinoyat ishlarida tashkilot ichidagi axloqiy me'yorlar, boshqaruv jarayonlari va qaror qabul qilish tartiblari asosiy tahlil obyektiga aylangan.

Xorijiy davlatlarning bir qator olimlari tomonidan yuridik shaxslar javobgarligi ko'pincha korporatsiyalar javobgarligi sifatida talqin qilinadi.

Jennifer Arlen (2022) korporatsiyalarning jinoiy javobgarligiga oid turli nazariy yondashuvlarni tahlil qilib, ularning samaradorligini baholashga harakat qilgan. U korporativ jinoyatlarning oldini olish va ularni to'g'ri yo'naltirish uchun quyidagi huquqiy mexanizmlarni taklif etadi:

- javobgarlikning samarali mexanizmlarini joriy etish: korporatsiyalarning jinoiy javobgarligini belgilashda ularning ichki nazorat tizimlari va komplayens dasturlarining samaradorligini inobatga olish lozim. Bu yondashuv korporativ jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi;

- ichki komplayens dasturlarining samaradorligi: korporatsiyalarning ichki komplayens tizimlarini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish orqali jinoiy qilmishlarni kamaytirish mumkinligi ta'kidlanadi;

- hamkorlikni rivojlantirish: korporatsiyalarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligini rag'batlantirish hamda o'zaro xabar berish mexanizmlarini joriy etish orqali jinoiy javobgarlikni kamaytirish mumkinligi taklif etiladi.

Judith Gabriël van Erp korporativ jinoyatlar faqat ayrim shaxslarning "yomon niyati" natijasi emasligini, balki korporatsiyadagi xodimlar tashkilotning tuzilishi, madaniyati va amaliyotlari bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Korporatsiyalar o'z a'zolariga lavozimlar, rag'batlantirish tizimlari, tarmoqlar, qoidalar, odatlar va ishonch tizimlarini taqdim etadi, bu esa jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi (Van Erp, 2018).

Stephen F. Smith (2022) korporativ jinoiy javobgarlik masalasini tanqid qilib, uni bekor qilish zarurligini ilgari suradi. Uning fikricha, korporativ jinoiy javobgarlikning amaldagi tizimi samarasiz va adolatsiz bo'lib, uning o'rniga fuqarolik va ma'muriy sanksiyalarni kuchaytirish lozim.

Uning fikricha, korporativ jinoiy javobgarlik quyidagi kamchiliklarga ega:

- haqiqiy aybdorlikning yo'qligi: korporatsiyalar shaxsiy jinoiy niyatga (*mens rea*) ega bo'la olmaydi. Har qanday jinoiy xatti-harakat korporatsiyada ishlovchi jismoniy shaxslar tomonidan sodir etiladi. Shu bois yuridik shaxsni jinoiy javobgar deb topish huquqiy asosga ega emas;

- ortiqcha jazolash va ikki karra javobgarlik: korporatsiya jinoiy javobgarlikka tortilganda, bu uning aksiyadorlari, xodimlari va mijozlari uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu bilan birga, aybdor xodimlar alohida javobgarlikka tortilishi natijasida ikki karra jazo holati yuzaga keladi;

- jazoning preventiv samarasizligi: korporatsiyalarga qo'llanadigan yirik jarimalar va moliyaviy sanksiyalar jinoyatlarning oldini olishda samarali vosita bo'la olmaydi, aksincha, oddiy aksiyadorlar va xodimlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- jinoiyat huquqi mohiyatiga zidligi: jinoiyat huquqi shaxsiy javobgarlikka asoslanadi, korporatsiyalar esa shaxs hisoblanmagani uchun ularga nisbatan jinoiy jazo qo'llash huquqiy jihatdan bahsli hisoblanadi.

A.I. Rarog yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlikni joriy etishni "antropotsentrizmdan chetlashish" sifatida baholaydi va ushbu institutni jinoiyat huquqining klassik tizimida qo'llashda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u yuridik shaxslarga nisbatan alohida shakldagi javobgarlik modellarini ishlab chiqishni

qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, jinoyat huquqining an'anaviy (klassik) modelida inson shaxsi jinoyat subyektlari tizimining markazida turadi. Ushbu yondashuv "antropotsentrik" deb yuritiladi va unga ko'ra:

- jinoyat subyekti faqat ongli, irodali va huquqiy qobiliyatga ega shaxs bo'lishi mumkin;
- jinoyat va ayb inson ongida shakllanadi, yuridik shaxs esa bunday qobiliyatga ega emas;
- shu bois yuridik shaxsni jinoyat subyekti sifatida tan olish jinoyat huquqi tamoyillariga zid hisoblanadi.

Shu bilan birga, A.I. Rarog yuridik shaxslarni faqat huquqiy fiksiya sifatida baholash mumkin emasligini ham tan oladi, chunki ularning jamiyat hayotidagi ta'siri sezilarli darajada katta. Biroq ularni jinoyat subyekti sifatida to'g'ridan to'g'ri tan olish jinoyat huquqining asosiy qonuniyatlarini buzishi mumkinligini ta'kidlaydi. U yuridik shaxslarning javobgarligini inkor etmaydi, biroq buning uchun alohida huquqiy institut joriy etilishini taklif qiladi. Uning fikricha, mazkur institut jinoyat huquqi doirasida emas, balki chegaraviy huquq sohalarida (masalan, iqtisodiy yoki ma'muriy huquq doirasida) shakllantirilishi mumkin. Javobgarlik shakllari esa jismoniy shaxslarnikidan farqli ravishda jarima, faoliyatni to'xtatib turish, litsenziyadan mahrum etish, tugatish va boshqa choralar ko'rinishida bo'lishi lozim. Shu tarzda yuridik shaxslarga nisbatan "alohida, modifikatsiya qilingan javobgarlik" modelini qo'llash maqsadga muvofiqdir (Rarog, 2020). A.I. Rarogning yondashuvidan kelib chiqib, yuridik shaxslar uchun javobgarlikni ilmiy va huquqiy asosda joriy etish faqat klassik jinoyat huquqi chegaralarini qayta ko'rib chiqish bilan emas, balki yangi huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi lozimligi anglash mumkin.

N.V. Radutnaya (2016) yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlikni joriy etishda aybdorlik, niyat va maqsad kabi ruhiy elementlarni yuridik shaxsga nisbatan qo'llash imkoni yo'qligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ayb va jazo shaxsiy xarakterga ega bo'lib, jinoyat huquqi tamoyillariga ko'ra jazo faqat shaxsga nisbatan qo'llanilishi lozim. Shu bois yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy jazo tayinlash muammoli hisoblanadi. Shu bilan birga, u yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini to'liq istisno qilmaydi, balki uni alohida huquqiy institut yoki gibril tizim orqali tartibga solishni taklif etadi. Bunda jismoniy va yuridik shaxslar javobgarligi aralashtirilmasligi hamda yuridik shaxslar uchun alohida huquqiy mexanizmlar qo'llanishi lozim.

I.I. Kucheroval yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik masalasini huquqiy amaliyot va qiyosiy tahlil nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. U Rossiya Federatsiyasida yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik rasmiy ravishda mavjud emasligini qayd etadi. Biroq ma'muriy javobgarlik normalari, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida, yuridik shaxslarning aybini qayd etish imkonini beradi (Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksning 2.10-moddasi). Shunga qaramay, uning fikricha, bu choralar yetarli emas, chunki ma'muriy sanksiyalar ko'p hollarda samarasiz bo'lib qoladi. Shu sababli yuridik shaxslarning xatti-harakatlarini jinoyat huquqi tizimi orqali baholash va jazolash samaraliroq bo'lishi mumkin.

U o'z qarashlarini asoslash uchun Fransiya, Germaniya, AQSH va Buyuk Britaniya tajribasini misol qilib keltiradi hamda Rossiya jinoyat qonunchiligida yuridik shaxslar javobgarligini joriy etishni taklif qiladi. Uning fikricha, javobgarlik nafaqat jazolash, balki profilaktika va ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlashga ham xizmat qilishi lozim. Shuningdek, qonunchilikka yuridik shaxsning aybini belgilash mexanizmlari (masalan, boshqaruv organlari harakatlari orqali) aniq kiritilishi zarurligini ta'kidlaydi (Kucheroval, 2019).

Y.V. Sidorenko yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasiga ehtiyotkorlik va tanqidiy yondashgan. Uning fikricha, yuridik shaxslarni jinoyat subyekti sifatida belgilash quyidagi inson huquqlari buzilishi ehtimolini yuzaga keltirishi mumkin:

himoya huquqining to'liq ta'minlanmasligi;

aybsizlik prezumpsiyasining real ta'minlanmasligi;

muayyan shaxslarning xatti-harakatlari orqali kompaniyaga ayb yuklanishi natijasida inson va tashkilot javobgarligi chegarasining yo'qolishi.

Shu sababli u yuridik shaxsga nisbatan jinoyat ishini yuritish odil sudlovning xalqaro standartlariga zid kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Y.V. Sidorenko yuridik shaxslarni jinoyat subyekti sifatida belgilash o'rniga quyidagi muqobil yechimlarni taklif qilgan:

– yuridik shaxslar uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash;

– moliyaviy sanksiyalar tizimini (jarimalar, kompensatsiya to'lovlari, aktivlarni muzlatish va boshqalar) joriy etish;

– tashkiliy cheklovlar (litsenziyadan mahrum etish, tenderlarda qatnashish huquqidan mahrum qilish va h.k.)ni joriy qilish;

– ishchanlik obro'siga oid ta'sir choralari qo'llash ("qora ro'yxatlar" tuzish va unga kiritish, bunday ro'yxatlarni e'lon qilish).

Muallif ushbu choralarni jazo emas, balki ta'sirchan profilaktika vositasi sifatida baholaydi. Uning yondashuvi jinoyat huquqining normativ-nazariy asoslarini himoya qilishga qaratilgan. U yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlikni joriy etishni nafaqat huquqiy, balki axloqiy jihatdan ham baholash zarur, deb hisoblaydi. Muallif jinoyat huquqi – oxirgi chora (ultima ratio) ekanligini ta'kidlab, bu institutga shoshilmasdan va fanning umume'tirof etilgan prinsiplariga tayangan holda yondashish kerakligini ta'kidlaydi (Sidorenko, 2017).

O.Y. Bakaev bugungi kunda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilash zarurati yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. U "korporativ ayb"ni yuridik shaxsni javobgar qiluvchi asosiy tushuncha sifatida ilgari suradi. Bunda ayb shaxsiy irodadan ko'ra tashkilotning ichki tuzilmasi va boshqaruv qarorlarida aks etadi (masalan, nazorat mexanizmlarining yetishmasligi, xavflarni boshqarish tizimining mavjud emasligi, korporativ etikaning yo'qligi), jinoyat esa faqat shaxs emas, balki tashkilotning madaniyati va funksiyalari tufayli sodir bo'ladi. Bu yondashuv anglo-sakson huquq tizimidagi "corporate fault" konsepsiyasiga yaqin turadi.

O.Y. Bakaev yuridik shaxs jinoyat sodir etganini aniqlash uchun quyidagi mexanizmlarni taklif etadi:

– "tashkilot nomi bilan harakat qilgan shaxs" modeli – kompaniya manfaatida harakat qilgan shaxslar orqali javobgarlik yuklash;

– tizimli nazorat kamchiligi – kompaniyadagi jarayonlar jinoyatga imkon bergani isbotlangan bo'lishi kerak;

– komplayens institutlarining mavjud emasligi – tashkilot o'z zimmasidagi profilaktik majburiyatlarni bajarmaganligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O.Y. Bakaev (2021) yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilash bo'yicha quyidagi xulosalarni ilgari surgan:

– huquqiy zaruratdir – chunki jinoyatlar tashkilot darajasida amalga oshirilmoqda;

– ijtimoiy zaruratdir – chunki korporativ jinoyatlar jamiyat xavfsizligiga tahdid soladi;

– lekin yuridik shaxslar jinoiy javobgarligini belgilash va amalga oshirishda ehtiyotkorlik va huquqiy aniqlik bo'lishi shart.

D.M. Kushbakov (2021) yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilash zarur deb hisoblab, Jinoyat kodeksini “Yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jinoyat-huquqiy ta'sir choralari” deb nomlangan alohida bo'lim bilan to'ldirishni taklif qilgan.

G'. Alimov (2019) xalqaro standartlarni tahlil qilgan holda korrupsion jinoyatlar uchun yuridik shaxslar javobgarligini belgilashni taklif etgan.

A.S. Yakubov va Sh.O. Azim (2025) yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasi mamlakatimiz uchun ham yangilik emasligini, ushbu masala 1994-yilda JK loyihasida muhokama qilinganini, biroq yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmaganini ta'kidlaydi. Ular ayrim konservativ qarashlar ustunlik qilganini, ammo bunday yondashuvlar zamonaviy muammolarni hal etishda to'siq bo'layotganini qayd etadi. Ular yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini quyidagi ikki yo'nalishda joriy etishni taklif qiladi:

- JK Umumiy qismida yuridik shaxslar javobgarligiga oid mustaqil bo'lim ajratish;
- JKning muayyan moddalarini yuridik shaxslar javobgarligiga oid qoidalar bilan to'ldirish.

Bunda ular O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasini asos sifatida olib, yuridik shaxslar sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot ekanligini ko'rsatadi hamda ushbu qoidalaridan yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasida ham foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi.

Yuqorida yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi (jinoyat subyekti bo'la olishi)ga oid bir qator tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Ushbu tadqiqotlar yuzasidan matn davomida ataylab mualliflik pozitsiyasi bildirilmagan. Klassik jinoyat huquqi maktabi nuqtayi nazaridan jinoyat subyekti faqat aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkinligi yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini istisno etadi. Biz ham shu pozitsiyaga qo'shilamiz: yuridik shaxslarning javobgarligi oqibatda ushbu yuridik shaxsda faoliyat yuritayotgan, jinoiy oqibatlar kelib chiqishida bevosita aybdor bo'lmagan shaxslarga nisbatan salbiy oqibatlar (ish o'rinlarining qisqarishi, maoshlarning kamayishi va boshqalar) keltirib chiqarishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, zamonning rivojlanishi, yangi texnologiyalarning jamiyat hayotiga jadal kirib kelishi, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, shuningdek korrupsiyaviy va ekologik jinoyatlar ko'lami oshib borayotgani jinoyat huquqi asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlikni joriy etish masalasini o'rganish O'zbekistondagi huquqiy islohotlar, iqtisodiy liberallashtirish va jamiyat xavfsizligini ta'minlash sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki soliqdan bo'yin tovlash, korrupsiya, tabiatga zarar yetkazish, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq jinoyatlar soni va xavfi ortib bormoqda. Jismoniy shaxs orqali tashkilot manfaatida jinoyat sodir etilganda mas'uliyat faqat individual emas, balki tashkilot darajasida ham bo'lishi mumkinligi, shuningdek xalqaro huquqiy majburiyatlar, xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003) davlatlardan yuridik shaxslarga nisbatan samarali sanksiyalar joriy etishni talab qilishi bu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi.

Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini belgilash uchun avvalo quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- jinoyat huquqining fundamental asoslari (ayb, jazo)ni qayta ko'rib chiqish;
- yangi subyekt – yuridik shaxs tushunchasini ishlab chiqish;
- ayb shakli (korporativ ayb, tashkiliy mas'uliyat) va jazo turlari (jarima, faoliyatni to'xtatish, tugatish va boshqalar) kabi yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish;

– jinoyat ishlarini yuritish tartibida protsessual yangiliklarni, xususan, yuridik shaxs manfaatlarini himoya qilish uchun huquqiy vakilni jalb etish asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish.

Yuridik shaxslar jinoiy javobgarligini belgilashning qanday afzallik va kamchiliklarini bo'lishi mumkinligini quyidagi jadval asosida ko'rsatishga harakat qilamiz (jadval).

Jadval

Yuridik shaxslar jinoiy javogarliligini belgilashning afzal va kamchilik tomonlari

<i>Afzalliklari</i>	<i>Kamchiliklari</i>
Korporativ xatarlarning oldini olish – tashkilotlarda komplayens institutlar va ichki nazoratni mustahkamlaydi.	Jinoyat huquqi shaxsiy xususiyatga ega ekanligi – yuridik shaxsda ayb, niyat, iroda kabi subyektiv belgilar mavjud emas.
Jamiyat xavfsizligini kuchaytirish – yirik kompaniyalar, xususan, transmilliy korporatsiyalar ta'siridagi jinoyatlarga qarshi samarali chora bo'lishi mumkin.	Aybni jismoniy shaxsdan tashkilotga yuklash xavfi – ayrim hollarda haqiqiy jinoyatchining javobgarlikdan qochish ehtimoli ortishi mumkin.
Xalqaro ishonch va investitsion muhit yaxshilanishi – huquqiy barqarorlik orqali xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli muhit yaratiladi.	Ortiqcha jazolash va ikki karra javobgarlik – yuridik shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladigan bo'lsa, bu odatda uning aksiyadorlari, xodimlari va mijozlari uchun ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Bundan tashqari, aybdor xodimlar alohida jinoiy ta'qibga tortiladi, bu esa korporatsiyaga nisbatan ikki baravar jazo belgilashga sabab bo'ladi
Yirik korporatsiyalar tomonidan qonun buzilishlarini kamaytirishga xizmat qilishi – jinoiy javobgarlik mavjudligi yirik korporatsiyalarning qarorlar qabul qilish jarayoniga ehtiyotkorlik bilan yondashuvni ta'minlaydi.	Jazo jinoyatning oldini olishga xizmat qilmaydi, bu yuridik shaxslarga katta miqdordagi jarimalar yoki moliyaviy sanksiyalar qo'llash jinoyatni oldini olishda samarasizdir. Bunday sanksiyalar korporatsiyaning yuqori rahbariyati yoki aybdor shaxslar emas, balki oddiy aksiyadorlar va xodimlar uchun ham zararlidir.

Yuridik shaxslar jinoiy javobgarligi (jinoyat subyekti bo'la olishi) masalasi alohida tadqiqotlar obyekti bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.


Xulosa

Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini joriy etish — shunchaki jazolash mexanizmi emas, balki biznes muhitida korporativ halollik (integrity) va ichki profilaktika (komplayens) tizimini majburiy shakllantirishning eng ta'sirchan vositasidir. Islohotlarni amalga oshirishda jismoniy shaxsning shaxsiy javobgarligi va tashkilotning institutsional mas'uliyati chegarasini aniq belgilash huquqiy adolatni ta'minlashning bosh mezoni hisoblanadi. Shu sababli, eng muvozanatli yo'l — klassik jinoyat huquqi prinsiplarini buzmaganda holda, yuridik shaxslar uchun jinoyat-huquqiy xarakterdagi alohida, modifikatsiya qilingan (gibrid) ta'sir choralari tizimini (jarimalar, komplayens nazoratini majburiy joriy etish, litsenziyani bekor qilish yoki o'ta og'ir hollarda tugatish) Jinoyat kodeksining maxsus bo'limida yoki chegaraviy huquq sohalarida (ma'muriy-iqtisodiy) joriy etishdir.

REFERENCES

1. Alimov, G. A. (2019). *Yuridik shaxslarning korrupsion huquqbuzarliklar uchun javobgarligini tartibga soluvchi xalqaro standartlar tizimi* [The system of international standards regulating the liability of legal entities for corruption offenses]. YuMOM.
2. Alimov, G. A., & Israilov, B. I. (2020). *Tenevaya ekonomika, korruptsiya, vzyatochnichestvo: ugovovno-pravovaya otsenka* [Shadow economy, corruption, and bribery: Criminal law assessment]. Adolat.
3. Arlen, J. (2022). Countering capture: A political theory of corporate criminal liability. *Journal of Corporation Law*, 47(4), 861–902. https://jcl.law.uiowa.edu/sites/jcl.law.uiowa.edu/files/2022-09/Arlen_Online.pdf
4. Austin, J. (1879). *Lectures on jurisprudence, or the philosophy of positive law*. John Murray.
5. Bakaev, O. Yu. (2021). Korporativnaya ugovovnaya otvetstvennost: neobkhodimost i predely [Corporate criminal liability: Necessity and limits]. *Law and Right*, (5), 27–31.
6. Bix, B. (2013). *John Austin and constructing theories of law*. In *The Legacy of John Austin's Jurisprudence*. Dordrecht.
7. De Montmorency, J. E. G. (1910). Friedrich Carl von Savigny. *Journal of the Society of Comparative Legislation*, 11(1), 32–54. <http://www.jstor.org/stable/752568>
8. Dewey, J. (1926). The historic background of corporate legal personality. *Yale Law Journal*, 35(6), 655–673. <https://openyls.law.yale.edu/entities/publication/c936e91e-5380-4e69-8f47-791f9b073d18>
9. Diamantis, M. E. (2019). Functional corporate knowledge. *William & Mary Law Review*, 61(2), Article 1. <https://scholarship.law.wm.edu/wmlr/vol61/iss2/1/>
10. Freund, E. (1962). Pioneer of Administrative Law. *The University of Chicago Law Review*, 29(4), 755–781. <https://doi.org/10.2307/1598814>
11. Gierke, O. (1913). *Das deutsche Genossenschaftsrecht* [German cooperative law]. Weidmann. <https://catalog.hathitrust.org/Record/100455196>
12. Kucherova, I. I. (2019). Yuridicheskie litsa kak subyekty ugovnoy otvetstvennosti: rossiyskaya i zarubezhnaya praktika [Legal entities as subjects of criminal liability: Russian and foreign practice]. *Journal of Russian Law*, (7), 52–59.
13. Kushbakov, D. M. (2021). Yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining xususiyatlari [Features of criminal liability of legal entities]. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(5), 1029–1037. <https://cyberleninka.ru/article/n/yuridik-shaxslar-zhinoiy-zhavobgarligining-hususiyatlari>
14. Pollock, F. (1882). *Essays in jurisprudence and ethics*. Macmillan.
15. Pollock, F. (1887). *The law of torts: A treatise on the principles of obligations arising from civil wrongs in the common law*. Stevens and Sons.
16. President of the Republic of Uzbekistan. (2018, May 14). *On measures to radically improve the system of criminal and criminal procedural legislation* (Presidential Resolution No. RP-3723). Lex.uz.
17. Radutnaya, N. V. (2016). Yuridicheskoe litso kak subyekt ugovnoy otvetstvennosti: problemy i perspektivy razvitiya [Legal entity as a subject of criminal liability: Problems and development prospects]. *Russian Justice*, (4), 15–18.
18. Rarog, A. I. (2020). *Ugovnoe pravo Rossii*. [Criminal law of Russia]. Prospekt.

19. Sarma, G. N. (1950). Harold J. Laski. *The Indian Journal of Political Science*, 11(4), 133–144. <http://www.jstor.org/stable/42743266>
20. Sidorenko, E. V. (2017). Problemy vvedeniya ugovnoy otvetstvennosti yuridicheskikh lits v rossiyskoe ugovnoe pravo [Problems of introducing criminal liability of legal entities into Russian criminal law]. *Criminal Law* (2), 48–55.
21. Smith, S. F. (2022). Corporate criminal liability: End it, don't mend it. *Journal of Corporation Law*, 47(3), 1–45. <https://doi.org/10.2139/ssrn.4031945>
22. Van Erp, J. (Ed.). (2018). *The organizational aspects of corporate and organizational crime*. MDPI. <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/193986/1/978-3-03897-259-4.pdf>
23. Yakubov, A. S., & Azim, Sh. O. (2025). Mekhanizm pravovoy reglamentatsii ugovnoy otvetstvennosti yuridicheskikh lits [Mechanism of legal regulation of criminal liability of legal entities]. *Criminological Activity*, 3(4), 9–18.



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).